



THE DYNAMICS OF LIVESTOCK DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1940–1970): THE CASE OF THE FERGHANA VALLEY REGIONS

Azizbek Adashaliyev

Lecturer

Namangan State Technical University

azizbekadashaliye1995@gmail.com

Namangan, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbek SSR, Ferghana Valley, livestock farming, statistical analysis, 1940–1970, World War II, cattle breeding, sheep breeding (Karakul and other breeds), horse breeding, agricultural policy.

Received: 03.02.26

Accepted: 04.02.26

Published: 05.02.26

Abstract: This article analyzes the dynamics of livestock sector development in the Uzbek SSR during 1940–1970, with particular focus on the regions of the Ferghana Valley. The study examines the negative impact of World War II on livestock production as well as the post-war recovery process. Special attention is given to changes in the number of cattle, sheep (including Karakul and other breeds), goats, and horses. The article also highlights the role and specialization of the Ferghana Valley within the overall livestock sector of the republic.

O‘ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOG‘INING RIVOJLANISH DINAMIKASI (1940–1970-YILLAR): FARG‘ONA VODIYSI OBLASTLARI MISOLIDA

Azizbek Adashaliyev

O‘qituvchi

Namangan davlat texnika universiteti

azizbekadashaliye1995@gmail.com

Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, Farg‘ona vodiysi, chorvachilik, statistik tahlil, 1940–1970-yillar, Ikkinchi jahon urushi, qoramolchilik, qo‘ychilik (qorako‘l, boshqa zotlar), yilqichilik, qishloq xo‘jaligi siyosati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1940–1970-yillar oralig‘ida O‘zbekiston SSR, xususan Farg‘ona vodiysi oblastlarida chorvachilik tarmog‘ining rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi. Maqolada Ikkinchi jahon urushining chorvachilikka salbiy ta‘siri, urushdan keyingi tiklanish davri o‘rganilgan. Maqolada asosiy e‘tibor qoramol, qo‘y (shu

jumladan qorako'l va boshqa zotlar), echki va otlar sonining o'zgarishiga, shuningdek, Farg'ona vodiysining respublika chorvachiligidagi o'rni va ixtisoslashuviga qaratilgan.

ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ ЖИВОТНОВОДЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ (1940–1970 ГГ.): НА ПРИМЕРЕ ОБЛАСТЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Азизбек Адашалиев

Преподаватель

Наманганского государственного технического университета

azizbekadashaliye1995@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекская ССР, Ферганская долина, животноводство, статистический анализ, 1940–1970-е годы, Вторая мировая война, скотоводство, овцеводство (каракульская и другие породы), коневодство, сельскохозяйственная политика.

Аннотация: В данной статье анализируется динамика развития животноводческой отрасли в Узбекской ССР в 1940–1970-х годах, в частности в областях Ферганской долины. Рассматривается негативное влияние Второй мировой войны на животноводство, а также процессы послевоенного восстановления отрасли. Основное внимание уделяется изменению численности крупного рогатого скота, овец (включая каракульскую и другие породы), коз и лошадей, а также роли и специализации Ферганской долины в системе животноводства республики.

Kirish. Chorvachilik O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda va yengil sanoat uchun xomashyo yetkazib berishda asosiy rol o'ynagan. Farg'ona oblasti O'zbekiston SSRning qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlaridan biri bo'lib, chorvachilik tarmog'i viloyat aholisi uchun muhim oziq-ovqat manbai hisoblangan. 1940–1970-yillar Farg'ona oblasti tarixida murakkab, ammo muhim davr bo'lib, bu yillarda chorvachilik urush, tiklanish va iqtisodiy islohotlar ta'sirida sezilarli o'zgarishlarga uchradi.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi respublika qishloq xo'jaligi zimmasiga nihoyatda muhim strategik mas'uliyat yukladi. Urush sharoitida asosiy vazifa front ehtiyojlarini, shuningdek mamlakat ichki hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz va barqaror ta'minlash, shu bilan birga sanoat tarmoqlarini zarur xom ashyo resurslari bilan muntazam ravishda ta'minlab borishdan iborat bo'ldi. Buning uchun agrar ishlab chiqarishni g'oyat qisqa

muddat ichida, butun xalq xo'jaligi kabi, harbiy izga o'tkazish lozim edi. 1940-yillarning boshlarida Farg'ona viloyatida chorvachilik asosan kolxoz va sovxozlar doirasida rivojlangan. Qoramolchilik, qo'ychilik va parrandachilik yetakchi tarmoqlar bo'lib, viloyatning sug'oriladigan yerlari yem-xashak yetishtirish uchun qulay sharoit yaratgan[1.51].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston SSR, xususan Farg'ona vodiysi oblastlarida 1940–1970-yillar oralig'ida chorvachilik tarmog'ining rivojlanish dinamikasini, unga ta'sir etgan tarixiy, iqtisodiy va siyosiy omillarni o'rganishdan iborat bo'lib unda quydagi metodologik yondashuvlar asosida amalga oshirilgan:

Manbashunoslik tahlili: Maqolada O'zbekiston SSRning "Народное хозяйство Узбекской ССР" rasmiy statistik to'plamlari, "Правда Востока" gazetasi kabi manbalardan keng foydalanilgan. Manbalarning ishonchliligi va mosligi baholangan.

Statistik tahlil: Chorva mollari (sigir, qo'y, echki, ot) sonining vaqt oralig'idagi (1941–1970) o'zgarishi Farg'ona vodiysi oblastlari (Farg'ona, Namangan, Andijon) va butun O'zbekiston SSR miqyosida taqqoslovchi jadvallar yordamida tahlil qilingan. O'sish va qisqarish tendensiyalari foiz hisobida ifodalangan.

Solishtirma tahlil: Farg'ona vodiysidagi chorvachilikning ayrim sohalaridagi ko'rsatkichlar boshqa oblastlarlar (masalan, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo) va respublika umumiy ko'rsatkichlari bilan solishtirilgan, oblastning respublika chorvachiligidagi o'rnini va ixtisoslashuvi aniqlangan.

Ma'lumotlar chorva turlari (qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik) bo'yicha guruhlangan va har bir tur uchun rivojlanish tendensiyalari va muammolari alohida tahlil qilingan.

Ushbu metodologik yondashuvlar chorvachilik tarmog'ining murakkab rivojlanish jarayonini har tomonlama va obyektiv o'rganish imkonini berdi.

Muhokama va natijalar. Ikkinchi jahon urushi yillarida (1941–1945) oblast chorvachiligi og'ir sinovlarni boshdan kechirdi. Erkaklar mehnat frontga safarbar qilinishi, chorva mahsulotlarining majburiy topshirilishi va yem-xashak tanqisligi chorva bosh sonining kamayishiga olib keldi. Shunga qaramay, Farg'ona oblasti kolxozlari front va orqa hududlarni oziq-ovqat bilan ta'minlashda muhim rol o'ynadi [2.37].

Urush davrida mudofaa ehtiyojlari va xalq xo'jaligi barqarorligini ta'minlashda qishloq xo'jaligining strategik ahamiyatga ega bo'lgan yetakchi tarmoqlaridan biri chorvachilik sohasi hisoblangan. Biroq Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida mazkur tarmoqda yo'l qo'yilgan tizimli va chuqur xatolar natijasida chorvachilik urush arafasiga kelib to'liq tiklanishga ulgurmagan edi. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi esa ushbu sohani yanada murakkab

sinovlar qarshisida qoldirdi. Oqibatda respublika miqyosida chorva mollari sonining keskin kamayishi kuzatildi. Agar 1941-yil 1-yanvarda jamoat sektorida 8403,1 ming bosh chorva mollari bo'lgan bo'lsa, 1944-yil 1-yanvarga kelib bu raqam 7798,9 ming boshga tushib qoldi. Shuningdek, shaxsiy sektorda ham sezilarli qisqarishlar ro'y berdi. 1941-yil 1-yanvarda shaxsiy foydalanishdagi barcha turdagi chorva mollar soni 3249,7 ming boshni tashkil qilgan bo'lsa, 1944-yilga kelib ular soni 1385,8 ming boshga tushib qoldi, yoki 1941-yildagi miqdorning 46,2%i qolgan edi [3.215].

Farg'ona oblastlarida esa urush va undan keying yillarda qoramollar, hususan, sigirlar sonini quydagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Barcha turdagi xo'jaliklardagi sigirlar soni (kolxoz, sovxoz); 1 yanvar holatiga; ming bosh

1-jadval[4.129]

Viloyat / Hudud	1941-yil	1961-yil	1966-yil	1967-yil	1968-yil	1969-yil	1970-yil
O'zbekiston SSR	629,7	931,0	1064,9	1127,4	1180,0	1210,1	1203,0
Farg'ona oblasti	69,4	96,6	116,0	121,6	130,2	134,2	133,7
Namangan oblasti	37,4	52,6	65,0	69,5	75,0	78,1	77,3
Andijon oblasti	57,1	66,7	81,3	87,8	96,3	98,7	93,1

Yuqoridagi jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, 1941-yilda uch viloyatning ulushi 163,9 ming bosh bu esa O'zbekiston SSRning 629,7 ming boshning taxminan 26% edi. Urushdan keyingi yillarda chorvachilikni tiklash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Kolxoz va sovxozlarda chorva sonini ko'paytirish, veterinariya xizmatlarini yaxshilash va yem-xashak bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi. Biroq, 1960-yillarning oxirida o'sish suratining pasayishi va ba'zi qisqarishlar qishloq xo'jaligi siyosati, iqlim sharoitlari yoki iqtisodiy omillardagi o'zgarishlar chorvachilikka ham o'z ta'sirini o'tkazdi. 1970-yil holatiga ko'ra, uchta viloyatning umumiy soni 304,1 ming bosh bo'lib, bu 1203,0 ming boshidan taxminan 25% ni tashkil qildi.

1940-yillarning oxiriga kelib viloyatda qo'y-echki soni urushdan oldingi darajaga yaqinlashdi. Ayniqsa, sut yetishtirish hajmining ortishi viloyat iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Respublikadagi qo'ylarning asosiy qismi qorako'l zotdagi qo'ylar tashkil etgan bo'lib, boshqa turdagi qo'ylar kamroq ulushni egallar edi [5.56]. Farg'ona vodiysida esa asosan "Jaydari", "Hisori" "Merinos" va "Degeres" qo'y zotlari boqilgan [6.45].

Boshqa zotdagi qo'ylar soni (barcha xo'jalik toifalari bo'yicha; 1-yanvar holatiga; ming bosh)

3-jadval [7.130]

Viloyat / Hudud	1941	1961	1966	1967	1968	1969	1970
O'zbekiston SSR	1571,1	2616,2	2334,5	2451,1	2618,4	2656,9	2310,5
Farg'ona oblasti	181,5	291,5	271,9	288,5	306,0	308,8	279,4
Namangan oblasti	145,7	249,1	239,3	243,0	262,2	259,4	249,8
Andijon oblasti	179,4	257,3	242,4	251,7	270,0	275,0	261,8

Farg'ona vodiysida butun Respublikadagi boshqa turdagi qo'ylarning 34,2% Farg'ona vodiysida boqilgan. Buni oblastlar kesimida oladigan bo'lsak, Namangan oblastida 10,8% (1940 – 1970-yillarda o'sish 71%), Andijon oblastida 11,3% (1940 – 1970-yillarda o'sish 46%), Farg'ona oblasti esa, 12,1% (1940 – 1970-yillarda o'sish 54%)ni tashkil etgan.

O'zbekistonda echkilar ma'lum bir turlarga bo'linmagan. Biroq boshqa tomondan, respublikada “tibet” va “angor” deb nomlanuvchi echkilar mavjud bo'lgan [8.15].

Echkilar soni Qoraqalpog'iston ASSR va viloyatlar bo'yicha (barcha xo'jalik toifalari bo'yicha; 1-yanvar holatiga; ming bosh)

4-jadval [9.131].

Viloyat / Hudud	1940	1950	1960	1965	1966	1967	1968
O'zbekiston SSR	1565,4	490,7	341,4	389,0	418,2	447,0	410,1
Farg'ona oblasti	44,5	11,0	8,3	8,9	9,8	9,3	8,1
Namangan oblasti	87,4	94,1	99,0	106,3	111,7	117,7	105,1
Andijon pblasti	24,0	2,6	1,8	2,2	2,1	2,2	1,6

Chorvachilik xo'jaligining asosiy turi bo'lgan yilqichilik sohasida O'zbekiston hududida uch turdagi ot turlari bo'lgan. Ular turkman (axaltekin□), qorabayir□ va qirg'iz□ kabi ot turlari edi. Turkman otlari umumiy otlarning ikki foizini tashkil etgan bo'lsa, qorabayir otlari 38 foiz ot turini tashkil etgan. Eng ko'p uchragan ot turi bu qirg'iz ot turi bo'lib, ular jami otlarning 60 foizini tashkil etgan. Bundan tashqari, respublikada turg'ay va qashg'or ot turlari ham kam sonda bo'lsa-da mavjud bo'lgan hamda aholi ularni yuqori qadrlagan [10.21].

O'zbekiston hududida yilqichilikning rivojlanishi turli xil shaklda kechdi. Ayrim vaqtlarda otlar soni ko'paygan bo'lsa, ayrim davrlarda bir qancha sabablarga ko'ra otlar soni tushib ketgan. Mazkur davrda yakka tartibdagi shaxslar otlarga bo'lgan qiziqishi yana qaytgan hamda ularda otchilik bilan shug'ullanish tashabbusi uyg'ongan.

Farg'ona oblastida esa otlarning soni quydagicha tasniflangan:

Otlar soni (barcha xo‘jalik toifalari bo‘yicha; 1-yanvar holatiga; ming bosh)

5-jadval [11.132].

Viloyat/Hudud	1941	1961	1966	1967	1968	1969	1970
O‘zbekiston SSR	468,3	206,3	140,1	135,5	135,4	131,5	115,5
Farg‘ona oblasti	32,7	13,1	7,8	6,6	6,3	5,7	4,9
Namangan oblasti	30,8	13,9	8,0	8,2	8,2	7,9	7,0
Andijon oblasti	41,3	15,1	9,5	8,9	8,9	8,6	7,7

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 1941-yildan 1970-yilgacha barcha hududlarda otlar soni keskin kamaygan. O‘zbekiston SSR umumiy hisobda 75% ga yaqin qisqargan, Farg‘ona oblastidagi viloyatlarda esa qisqarish 77% dan 85% gacha bo‘lgan. Bu davrda otlar sonining kamayishi, ehtimol, mexanizatsiyalashuv va transport vositalarining o‘ssishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Keyingi davrda chorvachilikda ayrim samarasiz islohotlar o‘tkazilgan. KPSS Markaziy qo‘mitasi bosh kotibi N. S. Xrushchyovning “makkajo‘xori siyosati” bunga misol bo‘ladi. 1955-yildan boshlab O‘zbekiston SSRdagi kolxozlarda ham ozuqa sifatida makkajo‘xori ekish boshlab yuboriladi [12.23]. Makkajo‘xorining qishloq xo‘jaligi uchun muhim pichan maydonlariga ko‘p miqdorda ekilishi natijasida chorvachilik qattiq zarar ko‘rdi.

Xulosa. O‘zbekiston SSR, xususan Farg‘ona oblasti uchun chorvachilik nafaqat aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash, balki yengil sanoat uchun xomashyo manbai sifatida muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuningdek, Ikkinchi jahon urushi (1941–1945) chorvachilikka jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Mehnat resurslarining kamayishi, majburiy mahsulot topshirish va yem-xashak tanqisligi tufayli ham jamoat, ham shaxsiy sektorda chorva mollari soni keskin qisqardi.

Xulosa qilib aytganda, 1940–1970-yillar oralig‘ida Farg‘ona oblasti va O‘zbekiston SSR chorvachiligi urush, siyosiy qarorlar, iqtisodiy o‘zgarishlar va texnologik taraqqiyot ta’sirida murakkab va o‘zgaruvchan rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Davr chorvachilikning barqaror rivojlanishi uchun muvozanatli davlat siyosati, yem-xashak bazasini mustahkamlash va ilm-fan yutuqlarini joriy etishning ahamiyatini aniq ko‘rsatib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumayeva Sh.Ch. O‘zbekistonda chorvachilikning rivojlanishi va taraqqiy etishi: natijalar va muammolar (mustaqillik yillarida Surxon vohasi misolida). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Termiz, 2023. – 51 b.

2. Абдуллаев Р., Рахимов. М., Ражабов К. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб. Ўзбекистон 1939-1991 йилларда. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – Б. 37.
3. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. //Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С. Камолов ва бошқ.; Таҳрир хайъати: А. Азизхўжаев (раис) ва бошқ./. — Т.: «Шарқ», 2000. – Б. 215.
4. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1969 г. Стат ежегодник. Т., «Узбекистан», 1970. (ЦСУ при Совета М-ов УзССР). 1970. С.129.
5. Ахмедов Б.А. Ўзбекистонда қорақўлчиликнинг аҳволи (1917-2017 йй.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 2020. – б. 56
6. Абдолниёзов Б.О. Чорвачилик асослари. – Тошкент: Noshir, 2010. – Б. 45.
7. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1969 г. Стат ежегодник. Т., «Узбекистан», 1970. (ЦСУ при Совета М-ов УзССР). 1970. С.131.
8. Джураев Р. Ўзбекистонда чорвачилик аҳволи ва муаммолари (1917-1941 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент –2020. Б. 15.
9. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1969 г. Стат ежегодник. Т., «Узбекистан», 1970. (ЦСУ при Совета М-ов УзССР). 1970. С.131.
10. Джураев Р. Ўзбекистонда чорвачилик аҳволи ва муаммолари (1917-1941 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент –2020. Б. 21
11. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1969 г. Стат ежегодник. Т., «Узбекистан», 1970. (ЦСУ при Совета М-ов УзССР). 1970. С.132.
12. Правда востока. № 1. 1 января,1956 год. С.23.
13. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: 1 – 9-jild. 2000–2005. В.427-811.
14. Военная энциклопедия. Россия, СПб., Сытин, 1911 – 1915. с. 545.